«TASDIQLAYMAN»
"Toshkent" MGQEsi boshlig'i
Sh.E.Sirajov

**"Toshkent" MGQEsi ishchi xodimlarining**
**MAJLIS BAYONI №7/24**

25.11.2024-yil Angren shaxar.

| | |
|---|---|
| Yig'ilish raisi | Sh.E.Sirajov |
| Angren shaxar IIB xodimi | B.Ergashov |
| Yig'ilish kotibi | F.Z.Latipov |
| Yig'ilish ishtrokchilari TMGQEsi | 25 ishchi xodimlari. |

## KUN TARTIBI:

1. "9-dekabr – Butunjaxon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati va "O'zbek geologiya qidiruv" AJ "Toshkent" MGQEsida 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta'minlash. Unda keltirilgan chora tadbirlarning bajarilishi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-210-son Qarori ijrosini ta'minlash.
3. 2024-yil 5-iyunda O'RQ-931-son bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "**Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi** Qonun mazmun-mohiyati tushuntirish.

## EShITILDI:

Bo'lim boshlig'i F.Z.Latipov va Angren shaxar IIB xodimi B.Ergashev kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqib kun tartibidagi masala yuzasidan "Toshkent" MGQEsida 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiralgan chora-tadbirlar dasturining ijrosi va unga amal oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar berib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-210-son Qarori va undan kutiladigan maqsad va vazifalarni tushuntirdi.



Shundan so‘ng rahbar va muhandis texnik xodimlarga yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligi haqida aytib o‘tilib ular to‘g‘risida ma`lumot o‘qib eshittirildi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2752-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4761-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 829-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori kabilar.



"Toshkent" MGQEsida "O'zbek geologiya qidiruv" AJ tomonidan ishlab chiqilgan chora tadbirlar rejasidagi bandlari yuzasidan ya'ni, Korrupsiyaga qarshi nazorat yo'nalishida komplaens ichki nazorati ma'sullari tomonidan targ'ibot ishlari o'tkazib kelinayotganligi;

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida jamoalarda psixologik muxitni yaxshilash buyicha ishlar davom ettirilmoqda va barcha muxandis texnik xodimlar deklaratsiya arizalarni to'ldirishganliklari aytib o'tdi.

Shundan so'ng so'zga chiqqan "Toshkent" MGQEsi korrupsiya qarshi kurashish ichki nazorat vakili 2024-yil korrupsiya qarshi kurashish yuzasidan olib borilayotgan ishlar va ko'rilayotgan choralar to'g'risida ekspeditsiya ishchi xodimlari tanishtirishlar berdi va bundan keyin ish jarayonida yoki jamiyatda bunday xolatlarga duch kelsa zudlik bilan tegshli ishonch raqamlariga murojaat qilishlari mumkinligi, murojaat qilgan shahsning shahsi oshkor qilinmasligi bo'yicha aytib o'tdi.

O'z navbatida yig'ilishda ishtirok etadigan barcha mas'ul rahbar va xodimlarga markaziy ekspeditsiyamizda yoki umuman qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar korrupsiya alomatlari sezilsa yoki guvohi bo'lishsa;

- bevosita markaziy ekspeditsiya boshlig'iga;
- ishonch telefon orqali -55-503-14-63;
- elektron pochta orqali info@uzgeo.uz;
- telegram bot kanali orqali @ichkinazoratbot;
- Jamiyatning to'g'ridan-to'g'ri Ichki nazorat bo'limiga (tel.: 95-505-99-00);

aloqaga chiqishlari mumkinligi qolaversa ularning shaxsga doir ma'lumotlari sir saqlanishi kafolatlanishi to'g'risida yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirildi

hamda joylarga borib qo‘l ostidagi ishchi xodimlarni xabardor qilishlari bo‘yicha topshiriqlar berildi.



Shundan so’ng ma’ruzachilar va ishchi xodimlar o’rtasida kun tartibidagi masala yuzasidan muzokaralar va savol javob bo’lib o’tdi.

**Yig‘iilish kotibi** **F.Z.Latipov**